

Zayniddinova Vasila Bakiyevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Gumanitar fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda kuchli quroqga aylangan ekan, butun dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ib qilishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoq orqali yoshlarning ongiga qalbiga va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishda muhim vazifani o'tamoqda.*

Kalit so'zlar: *axborot, mafkura, global, internet, ma'naviyat, inovatsiya, ma'naviy tahdid.*

Darxaqiqat! Bugungi kunimizni internet tarmog'isiz tasavvur etishimiz qiyin. Bilamizki 21-asr axborot tehnologiyalari asri, shunday ekan zamonaviy taraqqiyot bilan hamnafas bo'lismiz kerakligi hech kimga sir emas. Bizni tehnologiyalar makonidagi bilimimizning qanchalik keng ekanligi jamiyat taraqqiyotidagi o'rnimizni belgilab berayotgani ham yangilik emas. Har bir sohada yangi tehnologiyalarni hayotga keng targ'ib qilinayotgani ham ijtimoiy hayotimizga bir qator yengilliklar berayotgani juda ham quvonarli holat. Lekin tan olish kerakki bunday qulayliklardan noto'g'ri maqsadda foydalanayotganlar talaygina. Hozirgi paytda internet tarmog'idan foydalanish juda keng suratda rivojlanib bormoqda. Bu insonlarga juda keng imkoniyatlar eshiklarini ochib berayotgani hech kimga sir emas. Ma'lumotlarni uzatish, ta'lim olish, ko'ngil ochar tarmoqlar va h.k. Internet haqida gap ketar ekan, Ijtimoiy tarmoqlarni gapirmaslikning umuman iloji yo'q. Bu haqda Beruniy Sultonovich Alimov (bloqer, tarjimon, sobiq diplomat, filologiya fanlari doktori, dotsent) o'zining "Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli" nomli maqolasida quyidagi fikr yuritadi.²⁴ Ijtimoiy tarmoqlar aslida kimlarga va nima uchun kerak degan savolga aniq javob yo'q.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'zi bu savolga mantiqan "insonlar ortasidagi muloqotni ta'minlash, turli dunyo xabarlaridan boxabar etish, do'st orttirish, o'zining ikkinchi bo'lagini "sevgisini" topishda insonlarga yordam berish" kabi maqsadlari borligini bildirishadi, ammo bu bilan ular yoshlar ongiga "ommaviy madaniyat"ni singdirilib, ularning ongini umuman yot bo'lgan romantik g'oyalar, xom xayollar bilan to'ldiradi. Buning tub mohiyatiga nazar solsak, kimlarningdir iqtisodiy yoki siyosiy maqsadlari yotishini ko'rish mumkin. Chunki, o'z g'oyalarini sezilarsiz tarzda singdirib bo'lgach, ijtimoiy tarmoqlar turli chaqiriq va reklamalar orqali avval moliyaviy so'ngra, hatto, yashirin siyosiy maqsadlarini ham amalga oshirishi mumkin.

²⁴ Beruniy Alimov □ Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli □ maqolasidan//<https://beruniyalimov.uz/archives/705/>

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

“Umuman Internetning paydo bo'lishi bilan hayotning juda ko'p aspektlari, jumladan, kundalik maishiy xizmatlardan tortib, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va hatto davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko'cha boshladi.

Eng muhimi, u yoshlarning an'anaviy muloqot shaklini tubdan o'zgartirib yubordi. Olis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko'rish imkoniyatining yuzaga kelishi virtual suhbatlarni keskin ommalashtirdi. Keyingi 15-20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan, O'zbekistonlik yoshlар hayotida mobil aloqa urf tusini olgan bo'lsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalaridagi WhatsApp, ICQ, MSN

Messenger va Telegram orqali matnli muloqot (ing. text messaging) ommaviylik kasb etmoqda. Qayd etish kerak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb yarmi – ya'ni 3 mlrd.ga yaqin kishi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Shulardan eng katta qismi – 2 mlrd. odam “Facebook”da (<https://napoleoncat.com> sayti bergan ma'lumotga ko'ra), O'zbekistonda “Facebook” tarmog'idan foydalanuvchilar 1 millionga yaqinlashib qolgan. Ular o'rtacha 25-34 yoshda bo'lib, 65,5 foizini erkaklar, 34,5 foizini xotin-qizlarimiz tashkil etar ekan. Ayni paytda dunyoda 1 mlrd.lik auditoriyaga ega Instagram O'zbekistonda 1.586.500 nafar foydalanuvchiga ega. 2.476.590lik Facebook esa mamlakatimizda 686.400 kishini birlashtirgan. 200 mln.lik Telegram – O'zbekistonda 18 mln.kishiga xizmat ko'rsatmoqda.

Yakka tartibdagи muloqot chin ma'noda ommaviy tus oldi. Boshqacha aytganda, mashhur olim E.Tofflerning axborot asrida barcha ishlab chiqarishlar, jumladan axborot vositalari ham ommalashuvdan noommalashuv tomon, ya'ni individullahuv tomon yuz tutadi degan bashorati bir qadar o'z isbotini topmoqda.²⁵ Mana shunday xususiyatlari bilan ommaviy kommunikatsiya zamonaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos ko'rinishiga aylanib ulgurmoqda.

Ommabop ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan vatanparvar yoshlarning turli guruhlari axborot makonidagi o'ziga xos targ'ibotchi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

E'tiborli jihat shundaki, faol yoshlарimizni jipslashtirayotgan tarmoqdagi bu kabi ommabop guruhlar o'z o'rnida milliy OAV kabi mamlakatimiz media imijini mustahkamlashga bevosita xizmat qilmoqda.” Darhaqiqat ushbu raqamlar tobora kengayib borayotgani,bugungi kunda hech kimni ajablantirmsligi bor gap. Zamonaviy mobil qurilmalardan foydalanadigan biror bir inson yo'qki unda ijtimoiy tarmoqlarni kuzatmaydigan. Ijtimoiy tarmoqlarning juda ko'plab turlarini sanab o'tishimiz mumkin: “Odnoklassniki.ru”, “Telegramm”, “Facebook”, “Instagramm”, “Tik Tok”, “Bigo live”, “Snapchat”, “Viber”, “Vkantakt”, “Whatsapp”, “Twitter” bu qatorni yana uzoq davom etishimiz mumkin. Internet tarmoqlarining rivojlanish fonida “Kibermakon” tushunchasi ham keng qo'llanila boshladi. Buni Internet tarmog'ini ichidagi ma'lumotlar dengizi deyishimiz mumkin. Internet tarmog'idan olinadigan,unga yuklanadigan ma'lumotlarni hajm jihatidan juda katta ekanligi tufayli har bir

²⁵. Toffler 2010, 298

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

ma'lumotni kuzatishning ilojisi yo'q. Albatta bu haqida bosh qotiradigan mutasaddi tashkilotlar bor ammo ularning ham imkoniyati ma'lum darajada cheklangan. Shuni inobatga olib keng tarqalayotgan ijtimoiy tarmoqlarning mavjud mafkuraviy tahdidlarini gapirmaslikning ilojisi yo'q. Negaki, Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday deydi:"Tuya terisini inson boshiga kiydirish shart emas, endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas,balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi juda katta fojiadir.Chunki globallashuv butun dunyoda mafkuraviy tasir o'tkazish ko'lamini juda oshirib yubordi.Inson o'z fikriga,dunyoqarashiga ega bo'lmasa ,insonga bo'ladigan ma'naviy tahdidlarga bardosh bera olishi juda qiyin bo'ladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'. Hoshimov aytganlaridek, "Bu dunyo – muttasil aylanib turadigan murakkab mexanizm. Odamlar o'sha mexanizmning kichik bir vintchasi, xolos. Har bitta vintcha o'z vazifasini ado etmog'i lozim. Bittasi ishlamay qolsa, ko'rasan nima bo'lishini! Butun boshli mexanizm chok-chokidan so'kilib ketadi". Taassufki,yoshlar orasida diniy ta'limoti yetarli bo'lмаган yoshlаримиз har xil islomiy kanallarga ulanib, o'zларинг мafkuraviy g'oyalarini buzmoqdalar. Bunga sabab bo'layotgan ayrim "dinda ilmi bo'lмаганлар" dinimiz nomi bilan faoliyat olib borayotgan qo'shtirnoq ichidagi chalasavodlar din niqobi ostida o'zларining buzg'unchilik g'oyalarini yoyib, mamlakatimizning o'spirin yoshlарини yo'ldan urmoqdalar. Bolalar va biz yoshlarningning hovli va ko'chalardagi muloqotlarimiz hozirda haqiqiy hayotda asosan, aynan, chetichegarasi yo'q ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi. Mazkur muloqotlar bolalarga va biz yoshlarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvolo, tarmoqda ko'proq «do'st» orttirish imkoni mavjudligi. Tarmoqda muloqot qilarkanmiz, biz yoshlar o'zimizni omadli bola qilib ko'rsata olamiz. O'zgalar rolida o'zларимизни taqdim etib, turli yolg'on dunyolarga berilib ketamiz. Ba'zi uyatchang va tortinchoq yoshlar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqt kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o'z samarasini ham berishi mumkin.Internet — bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. Ba'zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o'tirishning ham hojati bo'lmaydi. Ular har yerda o'zлари taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin. Zamonaviy pedagog va psixologlar hozirga qadar virtual muloqot bola shaxsiy shakllanishiga qanday ta'sir etishi haqida bir xulosaga kelmaganlar. Ayrimlar bu faqat salbiy xususiyatlarnigina shkillantiradi deb bilib, bolalarning insonlararo munosabatlarida o'zларини tutish, histuyg'ularini namoyon etish va mimikalariga yomon ta'sir etishini ta'kidlasalar, boshqalar virtual muloqot — zamonaviy kommunikatsiyaning juda qulay va yengil usulidir deb biladilar. Bolani Internetda muloqot qilishga o'rganib borishida, ularga tarmoqda umuman, o'z shaxsiy ma'lumotlari, uy telefonni raqami, manzili, shuningdek, ota-onasi va yaqinlarining shaxsiy ma'lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish zarur. XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko'p jihatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, yoshlаримизning intellektual savodxonligiga,

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

ular ongi, ichki dunyosi va qalbida milliy g‘oyanining rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda esa internet tizimining ijtimoiy tarmog‘idan tarqatilayotgan turli xil yot g‘oyalarga qarshu mafkuraviy immunitetining nechog‘liq shakllanishiga bevosita aloqadordir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish maqsadida g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazish, dizinformatsion axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabit etish orqali mafkuraviy ta’sir o‘tkazish g‘oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga rahna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatları, uning o‘ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo‘yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan yovuz va buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirini o‘z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo‘lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtdoshimiz, bиринчи navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab etishlari lozim bo‘ladi.

Yana bir inobatga oladigan jihat shundaki internetdan, xususan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan keng qamrovli foydalanuvchilar yoshlardir. Jamiyat kelajagi deb e’tirof etiladigan, Kelajagimiz bunyodkorlari sifatida qaraladigan avlodning eng qimmatli boyligi vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda behuda sarflab yuborayotganlarini jim kuzatish juda achinarli holatdir. Aslini olganda maqsadli foydalanilsa internet tarmog‘ining foydali jihatlari juda keng albatta. Ammo bu mavjud imkoniyatlardan yoshlarning ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko’rsatish yo’llida foydalanadigan g‘arazli kuchlar ham yo‘q emas. Shundan kelib chiqib aytishim mumkinki yosh avlodni ushbu mafkuraviy ta’sirlardan asrash eng dolzarb masaladir. Sababi yoshlar ongi hali himoyalanmagan tashqi, mafkuraviy tahdidlardan muhofaza qilinmagan bo‘ladi. Ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi esa ularning ongi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatmay qo‘ymaydi. Chunki ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarning juda katta qismi ma’naviy jihatdan past darajadagi kontentlardir. Ularni kuzatib boradigan yoshlarning ma’naviy tushunchasiga juda salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli biz iloji boricha yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiga juda qattiq ta’sir ko’rsatishimiz kerak. Ularga mobil qurilmalardan foydalanishni cheklashimiz, internet tarmog‘iga kiradigan qurilmalardan uzoqroq tutishimiz kerak. Ularni kitob bilan do’st qilishimiz uchun imkonimiz yetgan har bir ishlarni qilishimiz qat’iyan talab etiladi. Hindistonda bir sartarosh o‘z ishxonasiga ko’plab kitoblarni yig’ib, navbat kutib turgan vaqtida kitob o‘qigan xaridorlariga chegirmalar qilib berish bilan shug‘ullanishi haqidagi hikoyani o‘qib juda chuqur o‘yga toldim. Nimagaki? Har bir inson mamlakat rivoji uchun juda kichik bo‘lsada o‘z hissasini qo’shishi mumkin ekan. Biz o‘z kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni bo‘sh vaqtini unumli foydalanishi uchun ularni kitobga bo‘lgan muhabbatini oshirishimiz lozim. Nafaqat kitobga balki Vataniga, diniga bo‘lgan muhabbatini ham oshirmog‘imiz lozim. Interent, uyali telefon, ijtimoiy tarmoq orqali muloqot va axborot almashinuvga xizmat qiluvchi faysbuk, tvitter, vayber, telegram

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

kabi dasturlar shular jumlasidandir. Ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar olis masofadan turib ilm olish, dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish va ma'lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jihatlari ham ko'zga tashlanayotgani ko'pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Chunki, keljagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning soatlab bu tarmoqlarda maqsadsiz o'tirishi ilm olish, kasb-hunar egallash va boshqa xayrli ishlarga sarflanishi kerak bo'lgan guldek umrining behuda va besamar ketishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlarning katta qismini yoshlari ma'naviyatining tubanlashuviga turki bo'luvchi, milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, urf-odatlar tashkil etadi. Bu esa, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamona viy telekommunikatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini tartibga solish, ularning imkoniyatlaridan oqilona istifoda etish, muayyan odob-axloq qoidalarga amal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda... Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish, dizinformatsion axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabit etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatlari, uning o'ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalar ta'sirini o'z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtdoshimiz, birinchi navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab etishlari lozim bo'ladi.

Kitob o'qish – inson tafakkurining ozuqasidir. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlarida bir necha ta'kidlagan. ““Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. “Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz”, degan edi davlat rahbari. Shunday ekan biz uchun benihoya qadrli bo'lgan vaqtimizni behuda sarflamasligimiz, kelajagimiz uchun foydali bilimlarni olishimiz. Bizga mutlaqo keraksiz bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan voz kechib, mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida tinmasdan bilim olishimiz zarur. Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir. Buning uchun hammamiz birdek ma'sul ekanligimizni bir soniyaga bo'lsa ham unutmasligimiz kerak. Bugungi kunda ayrim ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda 13 yoshga to'lмаган bolalarni ro'yxatga olmaslik uchun cheklar qo'yilgan. Ayrim kompyuter operatsion tizimlarida ham «ota-on» nazorati funksiyasi mavjud bo'lib, bolalarni tizimdan foydalanish vaqtlariga cheklov qo'yish imkonini mavjud. U kompyuterdan o'rnatilgan vaqtdan ortiqcha foydalanish imkonini bermaydi va avtomatik ravishda ishini to'xtatadi. Agar farzandingizga kompyuter sotib olib, undan bilimlari doirasini kengaytirish maqsadida foydalanishiga ruxsat bergen ekansiz, bu bilan o'zingizning ham oldingizga mas'uliyatli vazifalar paydo bo'lganini unutmasligingiz zarur aziz ota-onalar!

Ushbu maqolani yozar ekanman qalbimda juda ko'plab savollar uyg'ondi? "Men o'z vaqtimdan unumli foydalanyapmanmi? Jamiyatimizga, yurtimizga kerakli kadr bo'lib yetishishim uchun yetarlicha harakat qilayapmanmi? Menden nihoyatda umidlari katta bo'lgan ota-onam mendan faxrlanishi uchun nimalar qilayapman? Ushbu fikrlarimni o'qishingiz davomida sizda ham ushbu savollar paydo bo'lgan bo'lsa meni vaqtim, mehnatim besamar ketmabdi deb hisoblayman. Barchangizga qimmatli vaqtingizni ayamasdan maqolani o'qib chiqganingiz uchun minnadtorman!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.I.A.Karimovning Yuksak manaviyat yengilmas kuch.-T.: Manaviyat. 2008.
- 2."Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni .2016-yil 24-avgust
- 3."Yoshlar va axboriy psixologik xavfsizlik" Qodirov U. 2014-yil
- 4.O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umirlar" asaridan

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

5."Xoja Buxoriy" o'rta maxsus islom bilim yurti.Nilufar Ahadovna//<https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=5914/>

6.Beruniy Alimov "Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli" maqolasidan//<https://beruniyalimov.uz/archives/705/>//

7.. P.Taranov. Yuqori ong ensiklopediyasi, 1999 y

8.Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.:

9Tashmetov, T. X. (2021). Global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES jurnali